

NOQONUNIIY QUROLLANGAN TASHKILOTLAR TOMONIDAN QO'LLANILADIGAN YANGI TAKTIK HARAKAT USULLARI

Turkmanov Y.K.

*Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy qurolli mojarolar sharoitida noqonuniy qurollangan tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan yangi taktik harakat usullari harbiy xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Asimmetrik urush, tarmoqlashgan boshqaruv, axborot-psixologik ta'sir, uchuvchisiz uchish apparatlari, kiberfaoliyat va gibrid ta'sir instrumentlari kabi tendensiyalar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, mazkur taktik modellarning milliy va mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri hamda qarshi kurash mexanizmlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *asimmetrik urush, gibrid mojaro, noqonuniy qurollangan guruhlar, harbiy xavfsizlik, dronlar, axborot urushi, kiberxavfsizlik.*

НОВЫЕ ТАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ НЕЗАКОННЫМИ ВООРУЖЁННЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ В СОВРЕМЕННЫХ ВООРУЖЁННЫХ КОНФЛИКТАХ

Аннотация: *В статье анализируются новые тактические методы, применяемые незаконными вооружёнными организациями в современных вооружённых конфликтах с позиции военной безопасности. Рассматриваются особенности асимметричной войны, сетевой структуры управления, информационно-психологического воздействия, использования беспилотных летательных аппаратов, киберактивности и гибридных инструментов влияния. Обосновываются последствия данных тенденций для национальной и региональной безопасности, а также предлагаются комплексные меры противодействия.*

Ключевые слова: *асимметричная война, гибридный конфликт, незаконные вооружённые формирования, военная безопасность, беспилотники, информационная война.*

KIRISH

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, urush shakllari o'zgarishiga qaramay, uning mohiyatida strategiya, iroda va moslashuvchanlik hal qiluvchi omil bo'lib qolaveradi. Qadimgi harbiy tafakkur namoyandalaridan biri — Sun-tsz — “Urush san’ati” asarida: “Urush — davlat uchun hayotiy ahamiyatga ega ish, hayot va halokat yo'lidir”, deb ta'kidlagan. Uning fikricha, urushda g'alaba kuch bilan emas, balki strategiya va raqibning zaif tomonlarini anglash orqali ta'minlanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy qurolli mojarolarda ham kuchlar mutanosibligi emas, balki nostandart yondashuv va asimmetrik taktikalar ustun ahamiyat

kasb etmoqda. XIX asr harbiy nazariyasi asoschilaridan biri — Karl fon Klauzevits — urushni “siyosatning boshqa vositalar bilan davomi” sifatida izohlagan. Bugungi kunda bu g’oya yanada murakkab mazmun kasb etdi: siyosiy, axborot, iqtisodiy va kiber vositalar harbiy harakatlar bilan uyg’unlashib, gibrid mojaro muhitini shakllantirmoqda.

Markaziy Osiyo harbiy-strategik merosida ham moslashuvchanlik va tezkorlik g’oyasi alohida o’rin tutadi. Buyuk sarkarda Amir Temur o’zining “Tuzuklar”ida harbiy intizom, razvedka va vaziyatni chuqur tahlil qilishni g’alabaning asosiy sharti sifatida ko’rsatgan. Uning “Kuch — adolatdadir” degan shiori harbiy harakatlarning siyosiy va ma’naviy asoslar bilan bog’liqligini anglatadi.

XX asrdagi harbiy tajriba ham shundan dalolat beradiki, an’anaviy frontal to’qnashuvlar o’rnini manevr, tezkor zarba va axborot ustunligi egallagan. Zamonaviy davrda esa raqamli texnologiyalar, tarmoqlashgan boshqaruv va axborot-psixologik ta’sir mexanizmlari noqonuniy qurollangan tashkilotlar qo’lida asimmetrik instrumentga aylanmoqda.

Bugungi global xavfsizlik muhitida nodavlat qurollangan subyektlar klassik armiya modellaridan farq qiluvchi, tarqoq va yuqori darajada moslashuvchan taktik harakat usullarini qo’llamoqda. Ular kuchlar nisbatidagi nomutanosiblikni texnologiya, axborot ta’siri va “ur va chekinish” strategiyasi orqali bartaraf etishga intilmoqda.

Shu sababli, zamonaviy qurolli mojarolarda noqonuniy qurollangan tashkilotlar tomonidan qo’llanilayotgan yangi taktik harakat usullarini ilmiy tahlil qilish, ularning harbiy xavfsizlik tizimiga ta’sirini baholash va qarshi choralar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

XXI asrda qurolli mojarolarning tabiati sezilarli darajada o’zgardi. An’anaviy davlatlararo urushlar o’rnini asimmetrik va gibrid formatdagi mojarolar egallamoqda. Nodavlat qurollangan subyektlar strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida xavfsizlik muhiti tubdan o’zgarmoqda. Zamonaviy tahdidlar an’anaviy harbiy xatarlar doirasidan chiqib, gibrid, asimmetrik va transmilliy xususiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, harbiy xavfsizlikni ta’minlash masalasi kompleks yondashuvni talab etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyalaridagi nutqlarida zamonaviy xavfsizlikka tahdid solayotgan xalqaro terrorizm, ekstremizm, radikallashuv va transmilliy jinoyatchilik kabi omillarga alohida e’tibor qaratib, ularga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlagan. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, “tinchlik va barqarorlikni ta’minlash — taraqqiyotning eng muhim shartidir”.

Prezident tomonidan ilgari surilgan “Xavfsiz va barqaror Markaziy Osiyo” konseptual yondashuvi mintaqadagi mojarolarning oldini olish, radikal g’oyalar tarqalishini cheklash va yoshlarni ekstremistik ta’sirdan himoya qilish masalalarini ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu esa noqonuniy qurollangan tashkilotlar faoliyatining ildizlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Shu bilan birga, mamlakat mudofaa siyosatini modernizatsiya qilish jarayonida milliy armiyaning jangovar shayligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va kiberxavfsizlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident ta'kidlaganidek, zamonaviy tahdidlarga qarshi samarali javob berish uchun "Qurolli kuchlar zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lishi shart".

Mazkur yondashuv zamonaviy qurolli mojaralarda noqonuniy qurollangan tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan yangi taktik harakat usullarini har tomonlama tahlil qilish zaruratini belgilaydi. Chunki bunday tashkilotlar asimmetrik taktika, axborot-psixologik ta'sir, kiberfaoliyat va tarmoqlashgan boshqaruv orqali davlat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi – zamonaviy qurolli mojaralarda noqonuniy qurollangan tashkilotlar qo'llayotgan yangi taktik harakat usullarini harbiy xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilish va ularga qarshi kompleks choralar ishlab chiqishning nazariy asoslarini yoritishdan iborat.

Zamonaviy sharoitda noqonuniy qurollangan tashkilotlar klassik frontal jang taktikasidan voz kechib, moslashuvchan, tarqoq va texnologiyaga tayangan harakat modellarini qo'llamoqda. Bu esa harbiy xavfsizlik tizimlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy urushlar konsepsiyasi davlat monopoliyasining nisbiy susayishi va globallashuv jarayonlari bilan bog'liq. Asimmetrik mojaralarda kuchlar teng emas, ammo kuchsiz tomon nostandart taktikalar orqali ustunlikka erishishga intiladi.

Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy usul va xavfsizlik tahdidlarini modellashtirish yondashuvlari qo'llanildi.

NOQONUNIY QUROLLANGAN TASHKIOTLARNING YANGI TAKTIK USULLARI:

1. Tarmoqlashgan boshqaruv modeli. Avtonom guruhlar o'rtasida gorizontaal aloqa ustuvor hisoblanadi. Bu struktura barqarorlik va tezkorlikni ta'minlaydi.

2. Uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish. Arzon tijoriy dronlarning modifikatsiya qilinishi razvedka va cheklangan zarba imkoniyatini yaratadi.

3. Axborot-psixologik ta'sir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot va dezinformatsiya amalga oshiriladi. Axborot maydoni mustaqil ta'sir mexanizmiga aylangan.

4. "Yakson et va chekinish" strategiyasi. Qisqa hujum va tez tarqalish taktikasi an'anaviy armiyalarning ustunligini kamaytiradi.

5. Kiberfaoliyat. Shifrlangan aloqa, onlayn moliyalashtirish va kiberdiversiya elementlari keng qo'llanilmoqda.

MILLIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI:

Gibrid va asimmetrik tahdidlar harbiy xavfsizlik konsepsiyasini modernizatsiya qilishni talab etadi.

Samarali qarshi choralar:

- razvedka va tahlil tizimlarini raqamlashtirish;
- kiberxavfsizlikni kuchaytirish;
- dronlarga qarshi texnologiyalar joriy etish;
- profilaktik va mafkuraviy chora-tadbirlar.

Bu to'g'risida Mudofaa doktrinasida quyidagi asosiy prinsiplar keltirib o'tilgan:

Mustaqil va barqaror milliy xavfsizlik siyosati – O'zbekiston tashqi va ichki tahdidlardan mustaqil ravishda qochish va ularga qarshi samarali choralar ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Gibrid va asimmetrik tahdidlarga qarshi kurash – noqonuniy qurollangan guruhlar, transmilliy terrorizm va radikal ekstremizmga qarshi kurashish davlat xavfsizligi uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Harbiy va iqtisodiy tayyorgarlikning uyg'unligi – zamonaviy texnologiyalar, razvedka va axborot tahlili tizimlari milliy mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirishi lozim.

Xalqaro hamkorlik va mintaqaviy barqarorlik – xavfsizlik tahdidlariga qarshi samarali choralar faqat milliy darajada emas, balki xalqaro hamkorlik asosida ham amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi.

Doktrinada ayniqsa asimmetrik urush va zamonaviy qurolli mojarolarda nodavlat aktorlar ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu nuqta zamonaviy qurolli mojarolarda noqonuniy qurollangan tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan yangi taktik harakat usullarini tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Zamonaviy qurolli mojarolarda noqonuniy qurollangan tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan yangi taktik harakat usullari zamonaviy harbiy tahdidlarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Tadqiqot ko'rsatganidek, bu harakatlar an'anaviy frontal jang va kuchlarning to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuviga emas, balki asimmetrik va gibrid strategiyalarga asoslangan.

Mazkur usullar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Tarmoqlashgan boshqaruv va avtonom guruhlar – yo'qotishlarga chidamli, tezkor va moslashuvchan harakat imkoniyatini beradi.

Uchuvchisiz uchish apparatlari va arzon texnologiyalar – razvedka va cheklangan zarba berishda samarali asimmetrik instrument sifatida xizmat qiladi.

Axborot-psixologik ta'sir va radikallashtirish – ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platforma orqali targ'ibot va dezinformatsiya tarqatish imkoniyatini beradi.

Kiberfaoliyat va onlayn moliyalashtirish – nodavlat qurollangan guruhlarining barqarorligini oshiradi va davlat nazoratidan qochish imkonini yaratadi.

“Ur va chekinish” taktikasi – qisqa muddatli hujum va tez tarqalish orqali an'anaviy armiyalarning ustunligini samarasizlashtiradi.

Harbiy va strategik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday asimmetrik usullarga qarshi samarali choralar kompleks bo'lishi lozim. Buning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- Milliy razvedka va tahlil tizimini raqamlashtirish va integratsiyalashtirish.
- Kiberxavfsizlik va dronlarga qarshi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.
- Axborot va mafkuraviy ta'sir vositalari orqali radikallashtirishni oldini olish.
- Harbiy tayyorgarlikni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan boyitish.

Mudofaa doktrinasini va Shavkat Mirziyoyevning fikrlari shuni ko'rsatadiki, milliy xavfsizlikni ta'minlashda asimmetrik tahdidlarga qarshi faqat harbiy kuchlar emas, balki axborot, razvedka, kiber va jamoatchilik hamkorligi ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy qurolli mojarolarda noqonuniy qurollangan tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan yangi taktik harakat usullarini o'rganish nafaqat harbiy tahlil, balki milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun zarurdir. Ilmiy tahlillar va tarixiy sarkardalar tajribasi asosida kompleks choralar ishlab chiqish milliy xavfsizlik strategiyasining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Harbiy xavfsizlik tizimi kompleks va integratsiyalashgan yondashuv asosida takomillashtirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy mudofaa doktrinasini. – Toshkent, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot. – Toshkent, 2020.
3. Amir Temur. Tuzuklar / tahr. va izohlar. – Toshkent: "Fan", 2001. – 256 b.
4. Калдор М. Новые и старые войны. – М.: Институт Гайдара, 2015.
5. Кревелд М. ван. Трансформация войны. – М.: Центрполиграф, 2005.
6. Hoffman F. Hybrid Warfare and Challenges. – Washington, 2007
7. Zamonaviy harbiy xavfsizlikka oid ilmiy maqolalar to'plami.